

Harbiy sohada foydalaniladigan jihozlarga innovatsion moslama va qo'shimchalar tayyorlanmoqda!

Toshkent shahridagi Turin Politehnika universiteti talabalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining maxsus bo'limi qo'shinlarida foydalaniladigan kaskaga qo'shimcha funksiyalarni bajarishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilgan maket tayyorlandi. Ushbu maket tunda yorituvchi fonar, tungi ko'rish vositasi, lazer qurilma va kameralar o'rnatish imkonini beradi. Barcha qo'shimcha vositalar 3D printer yordamida tayyorlandi.

Askar holatini o'rganish maqsadida bronijiletga ko'p funksiyali metamonitoring moslamasi ulandi. Natijada EKG moduliga ulangan qurilma yordamida askarning yurak urish pulsi va harorati aniqlanadi va GPS qurilmasi yordamida joylashgan lokatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni monitoring qilish bazasiga yuborib turiladi.

Shuningdek, AK74 avtomatiga qo'shimchalar kiritgan holda tyuning qilindi, plastmassani 3D printer yordamida quyilgan qo'shima qulayliklar yaratuvchi moslamaga ulandi. Ushbu moslama yordamida lazer, fonar va binokl vositalarini o'rnatish imkoniyati yaratildi. Shuningdek ushlashga qulay bo'lishi uchun qo'shimcha ushlash vositasi o'rnatildi.



WWW.POLITO.UZ





